

CHET TILLARINI O'RGANISHNING TEZ VA SAMARALI YO'LLARI**Tursunboyeva Mo'minaxon Alinazar qizi**

Farg'ona Davlat universiteti ingliz tili va adabiyoti fakulteti

3- bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada chet tillarini qanday o'rganishni boshlash va qanday qilib tez va samarali o'rganish usullarini yoritib berilgan. Shuningdek, til o'rganishda innovatsion texnologiyalarning roli haqidagi axborotlarni olish mumkin.

Kalit so'zlar: interaktiv metod, motivatsiya , interaktiv suhbat, individual , "Wisdom dictionary", "OALD", struktura.

QUICK AND EFFECTIVE WAYS OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES

Abstract. The article shows how to start learning foreign languages and how to learn quickly and effectively. You can also get information about the role of innovative technologies in language learning.

Keywords: interactive method, motivation, interactive conversation, individual, "Wisdom dictionary", "OALD", structure.

БЫСТРЫЕ И ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация: статье показано, с чего начать изучение иностранных языков и как научиться быстро и эффективно. Вы также можете получить информацию о роли инновационных технологий в изучении языка.

Ключевые слова: интерактивный метод, мотивация, интерактивная беседа, индивидуум, «Словарь мудрости», «ОАЛД», структура.

Barchamizga ma'lumki hozirgi rivojlanib borayotgan taraqqiyot davrida chet tillarni bilish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi zamomaviy hayotda ingliz tilini bilish har bir yo'nالishda yaxshi mutaxassis bo'lishga katta imkoniyat eshiklarini ochib bermoqda. Shuningdek bu davr talabiga ham aylanib ulgurdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ingliz tilini o'rganishning siz uchun qulay tomoni hayotingizning deyarli barcha jabhalarida yaxshi natija olishga sizni moslashtirish qobiliyatiga ega. Ingliz tilini yaxshi o'rganish juda muhimdir va chet tilini o'rganish uchun ko'plab shunday sabablar bor. Demak ingliz tilini bilish biz uchun dolzarb bo'lsa, uni qanday tez va mukammal o'rgana olamiz? Uzoq yillar davomidagi izlanishlar natijasida shuni ko'ra olamizki, muammoning sababi til o'rganishga bo'lgan yondashuvdadir. Chet tilini o'rganish bu biz xayolimizga o'ylaganchalik qiyin emasligini kundan-kunga yaxshiroq anglab bormoqdamiz. Bu uchun muhimi chet tilini o'rganishda eng qulay yo'lni tanlay olishdir. Tilni o'rganish bugungi kunda o'qituvchidan ko'ra aynan til o'rganuvchi o'quvchining o'ziga ko'proq bog'liq bo'lib qoldi.

Kuchli motivatsiya. Har qanday tilni o'rganish uchun eng asosiysi hayotdagi barcha yo'nالishda bo'lganidek ishtiyoq. Bu motivatsiya bizning tilini o'rganishga qo'ygan maqsadimiz hisoblanadi. Sizning bu maqsadingiz qachonki siz tilni o'rganish paytida zerikish yoki charchash hissini sezganingizda sizni bu to'siqlardan olib o'tadi. Demak, siz o'zingizning ruhiy olamingizni til o'rganishga tayyorlasangiz, o'zingizga bo'lgan ishonchingizni oshirsangiz ya'ni fikringizni yaxshi maqsadlar bilan to'ldirsangiz yaxshi natijalarga erishasiz.

Kunlik mashg'ulot. Ko'pgina til kurslari haftada bir yoki ikki kun bir yarim-ikki soatdan dars tashkillashtiradi va kundalik ishlari bilan band bo'lgan til o'rganuvchi kishi boshqa kunlarda tilga vaqt ajratolmaydi va keyingi darsgacha oldingi darsdag'i mavzularni esdan chiqaradi va bu tilni o'rganish jarayonini ancha sekinlashtiradi. Shu uchun ham xohlagan bir chet tilini o'rganayotganda, uni har kuni individual o'rganish kerak va shunda har kuni takrorlanish natijasida tilni o'rganish jarayoni ancha tezlashadi.

Lug‘at yodlash. Har qanday chet tilida tez orada yaxshi gapishtirish uchun albatta sizda ko‘p lug‘at boyligi bo‘lishi kerak. Lug‘atlarni har kuni 20-30tadan yodlab lekin 1hafta o‘tmay ularni esdan chiqarib yuborish holati barchamizga ma’lum. Demak, nima qilish kerak? Siz lug‘at yodlaganda ularni asosan gaplarda qo‘llashga va interaktiv suhbatda ishlatalishda harakat qiling. Men sizga smartfoningizda oson ishlataladigan "Wisdom dictionary" va "OALD" ilovalarini lug‘at yodlash uchun taklif qilaman. Bu ilovalarda so‘zlarning tarjimasi bilan ularni gaplarda qanday strukturalarda qo‘llanilishi o‘rgatadi. Siz so‘zlarni gaplarda ishlatganingizda esingizda qolish imkoniyati oshadi va gapda qo‘llash yo‘llarini o‘rganasiz.

Grammatika. Chet tillarni o‘rganishda o‘rganuvchiga eng qiyin va zerikarli narsasi bu grammatika hisoblanadi. Biz oylab, yillab grammatika kurslariga boramiz va amaliyotda qo‘llanilmaydigan ko‘pgina qoidalarga duch kelamiz. Har qanday tilni o‘rganishda eng sodda yo‘ldan borish kerak. Shu uchun ham e’tibor bering: chet tillarida asosan sodda gap nimalardan iborat? Ega+Kesim+To‘ldiruvchi. Demak, gapning shu qismlarida ishlataladigan grammatikani o‘rganish tilni o‘rganish uchun yetarlidir.

Har qanday tilni o‘rganishdan maqsad shu tilda gapira olishdir. Shu tomondan o‘ylab chiqqanda, grammatikani o‘rganish siz uchun taxminan 80 foizga osonlashadi

Grammatikani o‘rganganda tilga olgandan so‘ng ularni o‘rganib chiqishni haftalarga taqsimlab oling. Har bir alohida mavzuga bir haftadan vaqt ajrating va hafta davomida bir mavzuni chuqurroq o‘rganib boring. Natijada, uch oyda chet tilida gapira olish uchun yetarli darajada grammatik asosga ega bo‘lasiz va ko‘rganiningizdek bu siz o‘ylaganchalik ham murakkab narsa emas.

So‘zlashgichlar yordami. Chet tilni o‘rganishni osonlashtirishning yana bir yo‘li, bu chet tilidagi tayyor so‘zlashgich yoki gidlardadir. Bugungi kunda hatto oddiy smartfoningizda ham ko‘plab chet tilida turli holatlarda ishlataladigan tayyor gaplardan iborat gid so‘zlashgichlar va ijtimoiy tarmoqlarda til kurslarini o‘rgatuvchi turli videolar bor. Aynan shu gidlarda siz tilda ishlataladigan tayyor gaplarni yodlab olishingiz mumkin. Bu gaplar sizni chet tilida so‘zlashishingizni ancha osonlashtiradi.

Chet tilini o‘rganish bo‘lsa o‘quv markazlari va o‘qituvchilardan ko‘ra bugun faqat va faqat sizga bog‘liqdir. Texnika taraqqiyoti evaziga, bugun ishonch, ishtiyoy va to‘g‘ri tanlangan metodikaning o‘zi chet tillarini o‘rganish uchun yetarli. Kimlar bilan chet tilida gaplashaman?

Tabiiyki shunday savol tug‘ilishi mumkin: "Xo‘p", siz aytgan narsalarni barchasini qildik. Lekin, tilni gapiresh uchun nima qilishim kerak? Kim bilan chet tilida gaplashsam bo‘ladi? Og‘zaki nutqimni qanday qilib o‘stirsam bo‘ladi?" Buning javobi borib bugungi ijtimoiy tarmoqlarga taqaladi. Ijtimoiy tarmoqlarida bugun tili o‘rganilayotgan mamlakatdan do‘srt orttirish juda oson holat bo‘lib qoldi. Lekin, o‘rganishning eng oson yo‘li bu xato qilishda ekanligini psixologlar isbot qilishgan. Shu uchun xato qilishdan qo‘rmasdan, chet tilida gapireshga harakat qilish kerak va shu orqaligini xato qilish natijasida o‘z kamchiliklaringizni tushunib borasiz va maqsadni keyin aynan shu kamchiliklarni to‘g‘rilashga qaratasisiz. Eng assosiysi, xatodan uyalmasdan chet tilida gapiresh. Men ham o‘tgan yillarda chet tilida gapiresh uchun bir necha marta "qovun tushirganman", hatto butun boshli grupper oldida kulguga qolgan davrlar bo‘lgan. Lekin bilasizmi, o‘sha xatolarni qilmaganimda, xatolarimni bilmaganimda bugun tilni shu darajada o‘rgana olmasdim.

Siz chet elliklar bilan tashkillashtirilayotgan ma’lum bir tadbir ishtirokchisisiz, siz bilan suhbatda bo‘lgan chet ellik qiynalib, xatolar bilan bo‘lsada sizning tilingizda gapiryapti. Shu holatda, siz uning xatolari uchun unga past nazar bilan qaramaysiz, aksincha o‘zingizni tilingizni o‘rganayotganligi uchun, unga nisbatan hurmatingiz ortadi, xursand bo‘lasiz va uni xatolarini tushunasiz. Demak, chet elliklar bilan ularning tilida suhbat qilish davomida, ular sizning xato qilishingizni tabiiy qabul qilishadi va ularning tilini o‘rganayotganingizdan xursand ham bo‘lishadi. Shu uchun ham xato qilishdan qo‘rqmang.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, chet tillarni bilish har bir soha vakili uchun yangi imkoniyatlar kalitidir. Siz sohangizni yaxshi bilsangiz bitta eshik, chet tilini ham bilsangiz yana bir eshik ochiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jalilov J. Chet tili o‘qitish metodikasi, Toshkent .2012
2. Джалолов Д.Д., Методическая разработка для групповых руководителей
3. Djumaqulov A. A.The diffirence modular teaching texnlogy and traditional teaching, 2020.
4. Adilova S. ,Xidralieva Z.Pedagogika ilmiy nazariy va metodik jurnali,"Tahrir va nashr".2017.